



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**TARIX FAKULTETI
TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
KAFEDRASI**

ETNODEMOGRAFIYA FANIDAN

REFERAT

Mavzu: O`zbekistoning Etnodemografik tasnifi.

204-gr

**Bajardi: Sayfitdinov SH.
Tekshirdi: RAVSHANOV SH.**

SAMARQAND - 2016

Reja

1. Demografik rivojlanish tarixi
2. Aholining joylashishi va zichligi
3. Aholining tabiiy ko`payishi
4. Aholi migratsiyasi
5. Urbanizatsiya
6. Milliy tarkibi
7. Ijtimoiy tarkibi
8. Aholining jins va yosh tarkibi
9. Mehnat resurslari va aholi bandligi
10. Manbalar

Demografik rivojlanish tarixi

O`rta Osiyo hududida yashagan ibtidoiy odamlarning qad. manzilgohlari quyi paleolit davriga to`g`ri kelad aholisi soni 30 million 488 ming kishini tashkil qildi. bo`lib (2014-yil 1-yanvar ko`ra), shahar aholisi 15 696 ming kishini tashkil etadi (2011). Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 62 kishi. O`zbekistonda O`rta Osiyodagijami aholining 1/3 qismidan ko`prog`i yashaydi.

Jez davrida O`zbekiston hududida chorvador va qisman dehqonchilik bilan shug`ullangan qabilalar yashagan. Bu vaqtda ibtidoiy jamoa davri yemirilib, qabilalar o`rtasida mulkiy munosabatlar vujudga keldi.

Eron shohi **Doro I** ning **Behistun yozuvlarida** o`zbek xalqining qadimiy ajdodlari xorazmiylar, sug`iylar, saklar, baqtriyaliklar to`g`risida ma`lumotlar berilgan. Yunon va rim tarixchilari **Gerodot**, **Strabon**, **Arrian** va **Ptolemey** hozirgi O`zbekiston hududida yashagan saklar haqida ma`lumotlar qoldirganlar. O`zbeklarning alohida elat bo`lib shakllanishi uzoq yillar davomida sodir bo`lgan etnik jarayonlar mahsuli dir. Ular **O`rta Osiyoning** markaziy viloyatlari **Movarounnahr**, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g`arbiy mintaqalarida shakllangan. O`zbek xalqining asosini hoz. O`zbekiston hududida qadimdan o`troq yashab, sug`orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug`ullanib kelgan mahalliy aholi: sug`diylar, xorazmiylar, baqtriyalar, chorvador sak-massagetlar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryolari bo`ylaridan turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o`zbek xalqi etnogenezida ishtirok etganlar. **Markaziy Osiyoning** keng hududida yashagan bu etnoslar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarda so`zlashganlar. Amudaryo va Sirdaryo havzalari oralig`ining o`troq aholisi va chorvador qabila va elatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi jarayoni natijasida o`troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o`zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllangan.

Mil. avv. III-asrda **Sirdaryoning** o`rta oqimida Qang` davlati hukm surgan davrda Amudaryo va Sirdaryo oralig`i va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o`ziga xos uyg`unlashgan madaniyat yuzaga keladi. Arxeologik va tarixiy majmualarda bu madaniyat «Qovunchi madaniyati» nomi bilan qayd etilgan. Antropolog olimlarning ta`kidlashicha, aynan shu davrlarda O`rta Osiyoning vodiylar va vohalarida yashovchi aholining tashqi qiyofasida hoz. o`zbek va voha tojiklari riga xos O`rta Osiyo ikki daryo oralig`i antropologik tipi to`liq shakllanadi. O`zbek xalqining etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar kushonlar hamda 45-a.larda O`rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Oltoy, Jan. Sibir va Sharqiy Turkistondan kirib kelgan xioniy, kidariy va eftaliylardir. Shuningdek, o`zbeklar etnogeneziga O`rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent vohasi, Farg`ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylari va Xorazm)ga kelib o`troqlashgan turkiy etnik komponentlar faol ta`sir ko`rsatadi. Bu komponentlar va mahalliy aholi o`rtasidagi etno-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida yangi qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo`jalik an`analar b-n jadal uyg`unlashuvi yuz beradi. 7-asrning 30-yillaridan boshlab o`lkamiz «Turkiston» nomi b-n atala boshlagan. 8-a.da arab va ajam xalqlarining

O`rta Osiyoga kirib kelishi b-n mahalliy aholining etnik tarkibida ma`lum darajada o`zgarishlar sodir bo`lgan bo`lsa-da, ammo mintaqadagi etnik jarayonlar ga kuchli ta`sir etmagan. Bu davrda Movarounnahrda o`troq va yarim o`troq turkiyzabon aholi, sug`diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o`z hududlarida arablar hukmronligida yashaganlar. 911-a.larda Movarounnahrda yaxlit turkiy qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kelib, o`z navbatida sug`diylar va b. mahalliy etnoslar b-n integratsiyalashuv jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo`lib, bu qatlam asosining aksariyat ko`pchiligi o`troqlashgan turg`un turkiy etnoslardan iborat bo`lgan. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o`tishi munosabati b-n sodir bo`lgan etnik jarayonlar o`zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo`ldi. Aynan shu davrda o`zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hududiy, madaniy -ma`naviy umumiylik, etnik o`zlikni anglash ma`lum bir davlat doirasidagi etnik uyushqoqlik, din umumiyliigi kabi etnik omillar shakllandi. Bu davrda o`zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Umuman olganda, elat shakllanishi dagi muhim ahamiyatga molik aksariyat etnik alomatlar shakllanib yetiladi. Shunday qilib, asrlar osha yurtimizda kechgan o`ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida 1112-asr boshlarida o`zbek xalqi shakllandi. O`zbekiston aholisining ijtimoiy -iqtisodiy va demografik rivojlani shi 19-asrning 2-yarmidan boshlab podsho Rossiyasi bosib olgandan so`ng keskin o`zgardi. Bu holat aholi soni, milliy va yosh-jinsiy tarkibi, ko`payish sur`atlari, joylashish xususiyatlarida o`z aksini topdi. Rossiyadan dehqonlar ko`chirilib, Mirzacho`lga joylashtiril di, Sharqiy Turkistondan uyg`urlar ko`chirilib keltirilib, respublika sharqidagi tog` vodiylarida ular uchun joy ajratildi. 1897 yilda o`tkazilgan aholi ro`yxatiga muvofiq O`zbekiston hududida 3,9 mln. kishi yashagan, shundan 19 % shahar aholisi edi. Tub aholining migratsion harakatchanligi past bo`lgan. Aholining ko`chib keluvchilar hisobiga o`sishi podsho hukumati mustamlakachilik siyosatining natijasi edi. Shu siyosat tufayli o`lkada yangi-yangi qishloq va shaharchalar barpo etildi. Biroq shunga qaramay 1865-1900 yillarda aholi 0,6 % ga ko`paydi. 20-asrning 1-choragida ham aholi o`sishida sezilarli o`zgarish bo`lmadi. 1924-40 yillar davomida O`zbekiston aholisi 2,3 mln. kishiga oshdi, aholining o`sishi yiliga 3 % ga teng bo`ldi. 2-jahon urushi O`zbekiston aholisi ning soniga, uning tarkibi va joylashuviga nihoyatda salbiy ta`sir ko`rsatdi. Urush natijasida respublika 1 mln. dan ortiq aholisini yo`qotdi. Aholining umumiy soni 1940-45 yillarda 6,6 mln. kishidan 5,2 mln. kishigacha kamaydi. Urushdan keyingi davrda aholi o`sish sur`atlarida ijobiy o`zgarishlar bo`ldi. Aholining soni 5,2 mln. dan 8,4 mln. gacha ko`paydi. Bunda ham sof tabiiy ko`payishdan ko`ra chetdan ko`chirib keltiril gan aholining salmog`i katta bo`ldi. 20-asrning 60-80-yillarida respublika aholisi tarkibida o`zbeklarning soni muntazam ravishda yuqori sur`atlar b-n ko`payib bordi. 1989 yilda o`zbeklar salmog`i respublika aholisining tarkibida 71,4 % ni tashkil etgan. O`zbekistonning mustaqil rivojlanish yo`liga o`tishi uning demografik tarixida mazmunan yangicha bosqichga o`tishni taqozo etdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o`zgarishi natijasida yangi demografik jarayon boshlandi: tug`ilish keskin kamaydi, mamlakatdagi slavyan xalqlar, yahudiy, mesxeti turk, grek, ukrain, nemis va b. xalqlarning ma`lum

qismi o'z tarixiy yurtlari va b. xorijiy davlatlarga ko'chib ketdi. Eng katta manfiy migratsiya saldosi 1990 yilda kuzatilib, 181,2 ming kishini tashkil etdi. Mazkur demografik jarayonlar O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlarini qisqarishiga olib keldi. Keyingi 15 yil davomida respublika aholisi 4,8 mln.ga ko'paydi, o'sish sur'ati 1,8 %ni, o'rtacha yillik mutlaq ko'payish soni 400 ming kishini tashkil qildi.

Aholining joylashishi va zichligi

Respublika aholisi, asosan, qadimdan o'zlashtirilgan, sug'orma dehqonchilik uchun sharoit qulay bo'lgan voha va vodiylarda zich joylashgan. Mirzacho'l, Surxon-Sherobod, Qarshi, Markaziy Farg'ona, Ellikqal'a cho'llarini o'zlashtirish natijasida hamda turli qazilma boyliklar konlarini topish asosida vujudga kelgan shahar va shaharchalar ham aholining hududiy tarkibiga o'zgartirishlar kiritdi. Biroq yangi aholi manzillari aholining asrlar davomida tarkib topgan hududiy shakllariga katta o'zgarishlar kiritma olmadi. Aholining asosiy qismi tug'ilib o'sgan joyida istiqomat qiladi. Bundan cho'l mintaqalarida yashovchi aholi mustasno. Shu bilan birga shaharlar tarmog'idagi o'zgarishlar shahar aholisining dinamikasi va joylashishiga katta ta'sir qildi. Keyingi yillarda ularda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. 1990-2005 yillarda mamlakat aholisining o'sish sur'ati pasayib borayotgan davrda ba'zi viloyatlarda bu jarayon sekinroq kechdi. O'zbekistonda demografik vaziyatning eng muhim xususiyatlari aholi o'sish sur'atlarining pasayib borishi; aholi tabiiy ko'payish ko'rsatkichining kamayishi; tashqi migratsiya natijalarining manfiylashuvi; shahar aholisining sust o'sishi va b. Mamlakatning shahar aholisi nihoyatda notekis joylashgan bo'lib, asosiy qismi Toshkent sh.ga to'g'ri keladi. Biroq Toshkent sh. aholisi so'nggi yillarda deyarli o'smadi, natijada uning O'zbekiston aholisi tarkibidagi ulushi 1990 yilda 10,5 %dan 8,2 % ga tushib qoldi. Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining demografik salohiyati pasaydi, Jizzax viloyatida o'zgarmadi, qolgan hududlarda esa oshdi. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining 16,4 % Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari ga to'g'ri keladi. Xorazm, Namangan va Samarqand viloyatlarida ham biroz o'sish bo'ldi. 1991-2005-yillarda O'zbekiston viloyatlari bo'yicha shahar aholisining o'sishida sezilarli darajada nomutanosiblik kuzatildi. Bu yillarda respublika shaharlari aholisining o'sish sur'ati 0,9 % bo'lib, bu ko'rsatkich Surxondaryoda 3,2 %; Jizzaxda 2,8 %; Sirdaryoda 0,6 %; Buxoroda 0,7 %; Xorazmda 0,8 % va Toshkent viloyatida 0,2 % ni tashkil etdi. Yuqoridagi o'zgarishlarga qaramay, respublika aholisining hududiy mujassamlashuvi darajasi hamon Farg'ona va Toshkent iqtisodiy r-nlarida yuqori. Farg'ona vodiysiga mamlakat aholisining 28 %, Toshkent sh. va viloyatiga 18 % to'g'ri keladi. Aholi zichligi 1 km² ga 58 kishi bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida 70 karraga farq qiladi yoki boshqacha aytganda, 7,3 kishidan (Navoiy viloyati) 552,5 (Andijon viloyati) kishigacha yetadi. Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida aholi juda zich, Qashqadaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida zichlik ko'rsatkichi ancha past. O'zbekiston Respublikasi jami aholisining 36,3 % shaharlarda, qolgan qismi qishloqlarda yashaydi. So'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayib borishi va qishloq aholisi hissasining o'sishi kuzatilmoqda.

Aholining tabiiy ko'payishi

O'zbekistonda aholi tabiiy ko'payishiga oid mufassalroq ma'lumotlar 19-asrning 2-yarmidan boshlab mavjud. Aholining tabiiy ko'payishi 1-navbatda tug'ilishga bog'liq. Respublikada 19-asr oxiri 20-asr boshlarida tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan. 1865-1917 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 ta kishiga nisbatan tug'ilganlar soni) 4550 %ni tashkil etgan. Tug'ilish fiziologik imkoniyat darajasida bo'lgan, oilada farzandlar tug'ilishi cheklanmagan. Buning asosiy omillari o'zbek ayollarining ijtimoiy i.ch. da juda kam ishtiroki, ma'lumotlilik darajasi ning pastligi, tug'ilishni qo'llab-quvvatlovchi urf-odat va qadriyatlar ta'sirining nisbatan yuqoriligi, go'daklar o'limining ko'pligidir. O'sha davrda aholi o'rtasida o'lim hollari ham yuqori bo'lgan. 1886-1900 yillarda O'zbekiston hududida 1000 ta aholiga nisbatan o'rtacha 49,8 ta bola tug'ilgan bo'lsa, o'lganlar soni (har 1000 kishi hisobiga) 44,8 ga teng edi. Demak, o'sha davrda o'zbek oilalarida tug'ilish yuqori bo'lishiga qaramay aholi o'rtasida o'limning ko'pligi, o'rtacha umr ko'rish davri juda qisqa bo'lgani (32 yosh) tufayli aholining tabiiy ko'payishi sust kechgan. Boshqacha aytganda, yuqori tug'ilish yuqori tabiiy o'sishni ta'minlay olmasdi, tug'ilishning «foydalilik» darajasi past bo'lgan. Mazkur dalillar O'zbekiston aholisining tabiiy ko'payishi 19-asr oxiri 20-asr boshlarida Yevropa xalqlaridan 3,5 barobar kam bo'lganini ko'rsatadi. Natijada aholi sonining o'sishi juda sekin kechgan. 1885-1917 yillarda O'zbekiston aholisi 3320 mingdan 4052 mingga yetdi yoki aholining soni har yili o'rtacha 0,6 % atrofida o'sdi. Bu ko'rsatkich hozirga qaraganda 3,1 marta kam, chunki 1991—2000 yillarda O'zbekiston aholisi yiliga 1,9 % dan ko'paydi. 1939—2004 yillar, ya'ni 65 yil mobaynida respublika aholisi 4,0 marta ko'paygan bo'lsa, bu ko'rsatkich shahar joylarda 6,4 va qishloqlarda 3,3 martani tashkil etgan. Albatta, ko'rilayotgan davrning turli oraliqlarida va qishloq hamda shahar joylarda aholi sonining ko'payish sur'ati turlicha bo'lgan. Jumladan, 1939-1959 yillarda jami aholi 127,9 % ga, shahar aholisi 185,6 % va qishloq aholisi 108,5 %ga o'sgan. 1959-1970 yillarda respublika jami aholisi 145,3 %ga, shahar aholisi 158,4 % va qishloq aholisi 141,3 %ga o'sgan, o'rtacha bir yillik ko'payish 3,45, 4,25 va 3,20 %ni tashkil etgan. Aynan shu yillar O'zbekiston o'zining tarixiy demografik rivojlanishining eng yuqori ko'rsatkichlariga erishgan. Undan keyingi yillarda aholi sonining o'sishi biroz susaygan, biroq shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan tezroq ko'payish jarayoni saqlanib qolgan. Masalan, 1970-1979 yillarda shahar aholisi 146,9 %ga, qishloq aholisi 120,9 % va jami aholi soni 130,4 %ga ortgan. 1979-1989 yillar mobaynida shahar aholisi 126,7 va qishloq aholisi 130,1 %ga o'sgan. Ko'rinib turibdiki, bu davrdan respublika qishloq joylarining demografik rivojlanishi shahar va shaharchalarga qaraganda ustunroq bo'lgan. Urbanizatsiya jarayonining bunday zaiflashuvi o'tgan asrning 80-yillarining 2-yarmidan boshlangan, 1984 yilda shahar aholisining ulushi 42 %gacha ko'tarilgan va shundan so'ng u asta-sekin kamayib borgan.

So'nggi yillarda respublika umumiy aholisi ko'payish sur'atining pasayishi va qishloq aholisining shaharlik larga nisbatan tezroq o'sish jarayoni kuzatilmoqda. Ayni paytda shahar aholisining ko'payish sur'ati eng past darajaga tushib qolgan (1,05 %). 2000-05 yillarda aholining o'rtacha o'sish sur'ati 1,2 % ni tashkil etdi va o'rtacha yillik mutlaq sonining o'sishi 310,4 ming kishiga tushdi. Mazkur davrda qishloq aholisi 4,4

mln.ga, shahar aholisi 1 mln.ga ko'paygan. Buning natijasida shahar aholisining salmog'i 40,4 % dan 35,9 % ga tushib qoldi.

Tug'ilish va tabiiy ko'payish koeffitsiyentlari bo'yicha respublika viloyatlarining qishloq aholisini mutanosib ravishda 2 guruhga ajratish mumkin: birinchisiga tug'ilish darajasi (20-22 %) va tabiiy ko'payish darajasi (14-17 %) o'rtacha bo'lgan 8 ta viloyat (Buxoro, Andijon, Navoiy, namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Toshkent) kiradi. Tug'ilish (23-24 %) va tabiiy ko'payish darajasi (18 19 %) nisbatan yuqori bo'lgan ikkinchi guruhga Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi kiradi. Shahar aholisi ichida o'rtacha tug'ilish darajasi (1620 %) 8 ta viloyatda kuzatil moqda. Namangan viloyatida shahar aholisining tug'ilishi nisbatan yuqori (20,2 %). Shahar aholisi ichida tug'ilish darajasi past bo'lgan (16 %) 4 viloyat mavjud. Bular Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari.

1991 yilda O'zbekistonda yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu o'zgarishlar 1-navbatda uning demografik vaziyati ga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston da tug'ilish jarayonining nisbatan yuqoriligining asosiy sabablaridan biri oila qadriyatlari hamda nikohdan o'tish jarayonining yuqoriligidir. Mas., 2005 yil har 1000 kishiga shaharlarda 7,0 nikoh to'g'ri kelgan bo'lsa, ajralish ko'rsatkichi 0,6 ga teng bo'ldi. 19912004 yillarda O'zbekistonda har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 34,5 dan 22,3 gacha yoki 1,2 punktga qisqardi. 2005 yilda aholi 292,1 ming kishiga yoki 2004 yilda giga nisbatan 1,1 % ga ko'paydi.

O'zbekistonda tug'ish yoshi koeffitsiyentlari ham qisqarmoqda. Tug'ilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga to'g'ri keladi. Bu holat so'nggi yillarda yanada barqarorlashdi.

Respublikada 1980-1995 yillarda o'lim koeffitsiyenti 7,5 promilledan 6,4 promillegacha qisqardi. Bu jarayon, asosan, go'daklar, bolalar va o'rta yoshdagi kishilar o'rtasida o'lim darajasining kamayishi b-n bog'liq. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi 1-navbatda aholi o'limining keskin kamayishiga olib keldi. Agar 18861920 yillarda O'zbekistonda har 1000 kishi hisobiga o'lganlar soni 4034 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1920 yil dan keyin bu ko'rsatkich 56 barobarga kamaygan. Respublika shahar hududlari da aholi o'limi qishloq joylarga nisbatan yuqoridir. Bunga sabab ekologik vaziyatdagi o'zgarishlar, shahar turmush tarzidir. Sanoat rivojlangan Toshkent sh.da aholi o'limi eng yuqori. O'lganlar soni 2005 yilda 2004 yilga nisbatan 6,6 % ga yoki 8,6 ming kishiga oshdi. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti esa 2004 yilda gi 15,4 % dan 14,3 %ga kamaydi.

Aholi migratsiyasi

O'zbekiston aholisi sonining o'zgarishida migratsiyaning ahamiyati katta bo'lgan. O'zbekistonning Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida bu yerga juda ko'p oilalar ko'chib kelgan. Ularga ko'chib kelish va joylashishda keng imtiyozlar berildi, tabiiy-iqlim sharoitlari qulay bo'lgan joylardan yer ajratildi.

19-asrning so'nggi 35 yili davomida O'zbekistonga Rossiyadan jami 7075 ming yoki yiliga o'rtacha 2 mingdan ortiq kishi ko'chib kelgan. Ko'chib kelganlarning aksariyati shaharlarda, jumladan Toshkentda joylashdi. 20-asr boshlarida ko'chib keluvchilar

salmog'i yanada oshgan. Mirzacho'lni o'zlashtirish uchun, keyinroq t.yillar qurilishi, sanoat korxonalarining barpo etilishi munosabati b-n Rossiyadan oilalarning ko'chib kelishi natijasida migratsiya oqimi kuchli bo'lgan. Ayniqsa, Toshkent zilzilasi (1966) dan so'ng tashqi migratsiya yanada kuchaygan, poytaxt aholisi tez ko'paygan.

Mamlakatda yirik sanoat markazlari bo'lgan Chirchiq, Olmaliq, Angren, Navoiy, Zarafshon, Ohangaron, Farg'ona, Bekobod sh.lari aholisi ko'p jihatdan bu yerga ko'chib kelganlar asosida o'sib bordi.

Umuman olganda, tashqi migratsiya ning O'zbekiston aholisi sonining o'sishidagi hissasi turli yillarda turlicha bo'lgan. Mas., 1895-1900 yillarda migratsiya qoldig'i jami aholi ko'payishining 1012 %ni tashkil etgan. Mazkur omilning roli 20-asrning boshlarida ham sezilarli bo'lgan: o'rtacha bir yilda ko'paygan har 10 kishidan bittasi tashqi migratsiya hisobiga to'g'ri kelgan.

1917-24 va 2-jahon urushi yillarida migratsiya qoldig'i respublika uchun manfiy natijaga ega bo'lgan. Qolgan yillarda, ayniqsa, urushdan keyingi 5 yillikda chetdan ko'chib kelganlar soni ketganlarga qaraganda ancha ko'p bo'lgan. Aynan shu yillarda tashqi migratsiya O'zbekiston aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payishining taxminan 1/3 qismini tashkil etgan. 1950-74 yillarda respublikalararo migratsiya qoldig'i O'zbekistonda 832,5 ming kishiga teng bo'ldi.

Tashqi migratsiyaning manfiylashuv alomatlari 20-asrning 80-yillarida yuzaga keldi. 1989 yil respublikaga 83,9 ming kishi ko'chib kelgan bo'lsa, 167,3 ming kishi ko'chib ketdi. Migratsiyaning manfiy qoldig'i 83,4 ming kishini tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida rusiyazon xalqlarning o'z yurtlariga qaytib ketishi natijasida tashqi migratsiyaning manfiylashuv alomatlari ancha sezilarli tus oldi. Aholining respublikadan ko'chib ketishi 1990 yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. O'sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning manfiy qoldig'i 140 ming kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda u asta-sekin kamayib bordi. Shuningdek, O'rta Osiyoning tub aholisi o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq va turkmanlarning migratsiya vositasida o'zlarining mustaqil respublikalariga ko'chib ketishlari ham respublikalararo migratsion aloqalar ning 1991-94 yillardagi asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mas., 1996-2003 yillar mobaynida migratsiya tufayli O'zR aholisi 531 ming kishiga kamaygan.

O'zbekiston aholisi faqat tabiiy ko'payish hisobiga bir yilda 370-400 ming kishiga ortishi lozim, biroq migratsiya qoldig'i manfiy bo'lganligi sababli bu ko'rsatkich 300 ming kishi atrofida bo'lgan.

Tashqi migratsiya avvalo shahar aholisi dinamikasiga ta'sir etadi. Chunki mamlakatga kelganlarning ham, ketganlarning ham ko'pchiligi shaharlar b-n bog'langan. O'tgan asrning 50-70-yillarida O'zbekiston shaharlari aholisi ning jadal o'sishi ham ko'p jihatdan shu omilga bog'liq bo'ldi. Keyingi yillarda urbanizatsiya darajasining sustlashuvi ham shuning ta'sirida yuzaga keldi. Ma'lumotlarga ko'ra, shahar joylarda tashqi migratsiya qoldig'i 1996-2003 yillarda taxminan 4050 ming kishi, qishloqlarda esa 2030 ming kishini tashkil etdi. 2005 yilda migratsiya qoldig'i manfiy 107,0 ming kishini tashkil etdi.

Migratsiya qoldig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida hamda Toshkent sh.da nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega. Ayni vaqtda, Andijon, Namangan, Xorazm viloyatlarida migratsiya aylanmasi manfiy bo'lsa-da, u aholi sonining umumiy o'sish ko'rsatkichlariga kuchli ta'sir etmagan. Migratsiyada qatnashganlarning jami hajmida Rossiya hissasiga 50,9 %, Ukrainaga 12,9 %, Qozog'istonga 10,9 %, O'rta Osiyoning boshqa mamlakatlariga 13,2 % to'g'ri keladi.

O'zbekistonda ichki migratsiya ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'tgan asrning 6070-yillarida Mirzacho'lning o'zlashtirilishi munosabati b-n bu yerga Farg'ona vodiysi hamda Samarqand va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlaridan ma'lum qism aholi ko'chib kelgan. Shuningdek, Qarshi, Surxon-She robod dashtlarining o'zlashtirilishi b-n ham aholining ichki migratsiyasi bog'liq bo'ldi. Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari va Farg'ona vodiysidagi yangi tashkil etilgan qishloq tumanlari aholisi, asosan, migratsiya natijasida shakllangan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ichki migratsiya harakatlarining pasayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyoti ga o'tish sharoitlaridagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidir. Aholining ish b-n ta'minlan ganlik darajasiga mamlakatdagi ichki migratsiya oqimlari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. 19802003 yillarda respublika ichki migratsiya hajmi 461,8 ming kishidan 250 minggacha, viloyatlar ichidagi migratsiya ham bu davrda 253,6 ming kishidan 138,0 mingga, ya'ni 118,6 ming kishiga, viloyatlararo migratsiya hajmi 208,2 ming kishidan 115,0 mingga, ya'ni 93,2 ming kishiga kamaydi.

Orolbo'yida ekologik vaziyatning salbiylashuvi sababli 1990-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining ba'zi tumanlaridan Toshkent va Sirdaryo viloyatlariga aholining ko'chib kelishi kuzatildi.

Urbanizatsiya

O'zbekiston jahonning ilk **urbanizatsiya** o'choqlaridan biri. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz, Qarshi va Shahrisabz sh.lari 2700 yillik tarixga ega. Mamlakatning turli hududlarida topilgan shaharlar qoldiqlari (Afrosiyob, Axxi, Pop, Nasaf, Kesh, Poykend va b.) ham bu yerda urbanizatsiyaning qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda 120 ta shahar va 117 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularda 9442 ming kishi yoki mamlakat jami aholisining 36,3 % yashaydi.

Shahar aholisi 1865—1917 yillarda past sur'atlar b-n ko'paydi. xx-asrning boshlarida shahar aholisi siyosiy vaziyatning barqarorlashuvi natijasida notekis o'sdi. Bunga, albatta, 1924 yilda amalga oshirilgan O'rta Osiyoning milliy-ma'muriy qayta bo'linishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1926 -40 yillarda shahar tarmog'i va shahar aholisining sonida katta o'zgarishlar bo'ldi. Industr lashtirish shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar 12 shahar qatoriga yangi shaharchalarning qo'shilishiga, shahar aholisining esa tez ko'payishiga sabab bo'ldi.

2-jahon urushi yillarida O'zbekistonning jami aholisi 1,5 mln.ga kamaydi, bunda shahar aholisining salmog'i ancha kam. Buning sababi frontga qurol-aslaha va b. mahsulotlar yetkazib beruvchi shaharlarning imtiyozlar b-n ta'minlanishi, ikkinchi sababi front oldidagi korxonalarining aksari qismi ishchilar b-n birga sharqqa, jumladan,

O'zbekiston shaharlariga ko'chirilishidir. Urush natijasida 1 mln. tub aholisini yo'qotgan respublika 1 mln. dan ortiq yevropaliklarga ega bo'ldi, bu holat esa siyosiy va demografik vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Urushdan keyingi «demografik kompensatsiya» davrida shahar aholisi tez sur'atlar b-n ko'paydi.

Shahar aholisi, ayniqsa, 1973-86 yillarda tez ko'paygan. Bunga 1972 yilda O'zbekistonda aholi yashaydigan joylarga shahar maqomini berish uchun zarur bo'lgan demografik me'yorning o'zgarishi, ya'ni aholi sonining 10 mingdan 7 ming kishiga tushirilishi sabab bo'ldi. Natijada bir yilda o'nga yaqin qishloqlar shahar toifasiga o'tkazildi. Mas., 1970 yilda respublikada 42 ta shahar bo'lgan bo'lsa, ular qatoriga 1973 yilda 13 ta, 1974 yilda 9 ta, 1975 yilda 5 ta, 1976 yilda 6 ta, 1977 yilda 5 ta «yangi shahar» qo'shildi.

Biroq, shaharlar sonining bunday tez sur'atlarda ko'payishi haqiqiy urbanizatsiya emas, ko'proq «soxta» urbanizatsiyaga olib keldi. Shaharlar sonining ko'payishi XX-asrning 90-yillarida keskin qisqardi va eng so'nggi yillarda yangi shaharlar deyarli tashkil topmadi. hoz. Toshkent viloyatida 34 ta, Qoraqalpog'istonda 29 ta, Samarqand viloyatida 23 ta shahar va shaharchalar mavjud. Ularning eng kam soni Sirdaryo viloyatida 11 ta va Xorazm viloyatida 10 ta, Buxoro viloyatida 14 ta va Navoiy, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida 15 tadan, Andijon va Qashqadaryoda 16 tadan, Namangan viloyatida 20 ta va Farg'onada 19 ta shahar va shaharchalar bor (2005).

Urbanizatsiya faqatgina shahar va shaharchalarning umumiy soni b-n emas, balki ko'proq shaharlar aglomeratsiya sining rivojlanganligi b-n belgila nadi. O'zbekistonda 2005 yil ma'lumotiga ko'ra 17 ta yirik shahar bor. Ular orasida Toshkent sh. keskin ajralib turadi. Aholisining soni 2128 mingdan ortiq bo'lgan poytaxt shaharning respublikadagi urbanizatsiya jarayoniga bo'lgan ta'siri benihoya katta. Shu tarzda O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni Toshkent sh., katta va o'rta shaharlarga bog'liq holda amalga oshmoqda (9-jadvalga q.). Yirik shaharlar negizida shaharlarning murakkab hududiy tizimi shahar aglomeratsiyalari vujudga kelgan bo'lib, ular urbanizatsiya rivojlanishining muhim ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Mas., Toshkent aglomeratsiyasi 30 ga yaqin shahar va shaharchalarni birlashtiradi. Shuningdek, Farg'onaMarg'ilon, Samarqand, Namangan, buxoro, Andijon, va b. aglomeratsiyalar ham rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi 1984 yilda 42 % dan ortiqroq edi. Keyingi paytda urbaniza siya ko'lamiga shahar aholisining tabiiy o'sish darajasining kamayib borishi ham ta'sir etmoqda.

Urbanizatsiya darajasining qisqarib borishiga qishloq aholisining shaharliklarga nisbatan tezroq ko'payishi, shaharlarda (ayniqsa, sanoat markazlarida) tashqi migratsiyaning kuchayishi, yangi shaharlarning vujudga kelmasligi ham sabab bo'ldi. Ammo qishloq joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, infratuzilma va sanoat korxonalari, dam olish maskanlarining tashkil etilishi, q.x.ga tegishli bo'lmagan iqtisodiy tarmoqlarda tadbirkorlikning rivojlanib borishi urbanizatsiyaning haqiqiy holatini ifodalab beradi. Mazkur o'zgarishlar hamda shaharlar rivojlanishi asosida O'zbekistonda yaqin yillarda urbanizatsiya umumiy ko'rsatkichining qisqarib borishi to'xtab, o'sa boshlaydi.

Milliy tarkibi

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhiti, xususan, salkam 150 yil mustamlaka bo'lib kelgani uning demografik rivojiga, jumladan, aholining milliy tarkibiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Aholi haqida, ya'ni aholining umumiy soni, hududlar bo'yicha taqsimlanishi, yoshi, jinsi, ijtimoiy va milliy tarkibi, tabiiy o'sishi, migratsiyasi va b. haqida aholi ro'yxati o'tkazish orqali to'liq ma'lumot olinadi. O'zbekistonda aholi ro'yxati keyingi 100 yil ichida bir necha marta (1897, 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda) o'tkazilgan.

O'zbekiston dunyodagi ko'p millatli respublikalardan biri. O'tgan yillar ma'lumotlari qiyoslab ko'rilganda, 1939 yilgi aholi ro'yxatida O'zbekistonda 97, 1959 yilgi ro'yxatda 113, 1979 yilgi ro'yxatda 120 dan ortiq millat va elat yashagan. 1989 yilgi aholi ro'yxatidan esa, O'zbekistonda 125 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib, ularning umumiy soni 19 mln. 810 ming kishi ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonning tub aholisi o'zbeklar. So'nggi yillarda aholining milliy tarkibida o'zbeklarning hisssasi oshdi va hoz. respublika aholisining 80,0 %ni tashkil etmoqda. Respublikada qoraqalpoqlar ikkinchi tub millat hisoblanadi. Ularning umumiy soni 549,2 ming kishiga yoki mamlakat aholisining 2,2 %ga teng. O'zbekiston Respublikasida O'rta Osiyo mahalliy xalqlaridan tojiklar (1237,4 ming yoki 4,9 %), qozoqlar (977,8 ming 3,6 %), qirg'izlar (227,4 ming 0,9 %), turkmanlar (152,3 ming 0,6 %) ham istiqomat etadi. O'zbekistonda yashab kelayotgan tatarlar soni ham anchagina (275,4 ming kishi 1,0 %).

O'zbekiston Respublikasida rus, ukrain, beloruslar b-n bir qatorda polyak, chex, bolgar va b. ham yashaydi. 1989 yil aholi ro'yxatiga ko'ra soni jihatidan 2-o'rinda ruslar turar edi, hoz. esa 3-o'rinda bo'lib, 1050 ming kishidan ziyod yoki umumiy aholiga nisbatan 3,8 %ni tashkil etadi. O'zbekistonda yashovchi ruslarning soni jihatdan o'sish dinamikasiga nazar tashlasak, eng tez sur'at b-n ko'payishi 1959-1970 yillarga to'g'ri keladi. Buning sababi 1966 yil Toshkent zilzilasi so'ng shaharning qayta qurilishi hamda respublikada yangi sanoat markazlari tashkil topib, rus va yevropa xalqlarining ko'plab jalb qilinganligidir. Biroq keyingi yillarda ruslarning o'sish sur'ati bir qadar kamaydi.

O'zbekistonda hind-evropa oilasiga mansub bo'lgan tojiklardan tashqari fors, pushtun, balujlar va b. xalqlar ham bor. Mamlakatda koreys, arman, yahudiylar ham yashaydi.

Mamlakatda millatlar ning geografik joylashi shi ham bir tekis emas. Buning birinchi sababi millatlarning tarixiy rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan respublikada xalq xo'jalik tarmoqlari ning rivojlanish xususiyatlaridir. Qishloq joylarda tub millat vakillarining soni ko'payib, boshqa millat vakillarining nufusi kamaymoqda. Qoraqalpoqlar to'la-to'kis o'z respublikasi doirasida yashaydigan millat hisoblanadi (94,5 %). O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davrida aholi milliy tarkibida katta o'zgarish sodir bo'ldi. hozirda O'zbekistonda o'zbeklar salmog'i 1989 yilga nisbatan 8,6 % ga oshdi.

Ijtimoiy tarkibi

O'zbekistonda aholining ijtimoiy tarkibi turli davrlarda turlicha bo'lgan. Respublikada ishchi va xizmatchilarning soni va ulushi 20-asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda o'sib borgan. Mazkur davrda ishchi va xizmatchilarning ulushi 32,2 %

dan 79,7 % gacha ko`paygan. Mustaqillikka erishilgach, ko`p ukkladli iqtisodiyot va bozor munosabatlarining shakllanishi ta`sirida aholining ijtimoiy tarkibida katta o`zgarishlar bo`ldi (11-jadvalga q.). Xususiyl mehnat faoliyatida band aholining tez sur`atlar b-n o`ishi respublika aholisining ijtimoiy tarkibiga katta ta`sir ko`rsatmoqda.

Keyingi yillarda ro`yxatga olingan ishsizlar soni ham qisqarib bormoqda. 2002 yilda ularning soni 40,3 ming kishini tashkil etgan bo`lsa, 2005 yilda 27,7 ming kishiga tushdi. 2005 yilda mehnat organlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so`rab 410,3 ming fuqaro murojaat qildi. Bu 2004 yilda giga nisbatan 14,7 ming kishiga yoki 3,4 %ga kamdir. 2005 yilda mehnat resurslari soni 10196,3 mingni tashkil etib, 2004 yilga nisbatan 2,9 %ga ko`paydi. Nodavlat sektorida band bo`lganlar ulushi 2004 yilda gi 76,9 %dan 77,1 %ga yetdi.

Aholining ma`lumotlilik darajasi ning ortib borayotganini respublika da oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari va ularda tahsil olayotgan talabalar sonining ortib borishi b-n taqqoslasa bo`ladi. O`zbekistonda 2002/05 yillarda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi o`quv muassasalari soni 973 tagacha ko`paydi. Ularda tahsil olayotgan o`quvchilar soni 750,3 mingga yetdi. 2000/01 o`quv yilida respublikada 61 oliy o`quv yurti bo`lib, ularda 183,6 ming talaba tahsil oldi. Mazkur ko`rsatkich 2005-06 o`quv yilida muvofiq ravishda 60 va 264,9 mingni tashkil etdi.

Aholining jins va yosh tarkibi

Demografik vaziyatning shakllanishida aholining jinsiy tarkibi asosiy omil hisoblanadi. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar salmog`ining tengligi, ya`ni mutanosibliigi ularning nikohga kirish va oilalarning tashkil topishiga qulay vaziyat yaratadi, biroq har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog`i teng bo`lavermaydi. Statistik ma`lumotlarning ko`rsatishicha, O`zbekistonda 19-asrning 2-yarmi hamda 20-asr boshlarida aholi tarkibida erkaklar salmog`i ancha yuqori bo`lgan.

Toshkent sh. aholisi miqdorida ayollar salmog`i respublikaning o`rtacha ko`rsatkichidan yuqoriroq bo`lib, 51,0 %ni tashkil etadi (2004). Buning asosiy sababi shahar aholisining milliy tarkibiga bog`liq: Toshkent sh. aholisining 4045 %ni boshqa millat vakillari tashkil etadi, ularda ayollar miqdori erkaklarga nisbatan bir qadar yuqori. Bundan tashqari shahar joylarda erkaklar o`limi qishloq joylarga nisbatan ancha yuqori. Mas., 1989 yilda O`zbekistonda 5054 yoshdagi har 1000 ta erkak orasida qishloqda 10 tasi o`lgan bo`lsa, shaharda o`lim 13 taga yetgan. Bu ko`rsatkich 7074 yosh guruhlarida 4962 ni tashkil etadi.

Aholining ko`payishida yoshlar, ayniqsa, 1519, 2024, 2529 yoshli guruhlarining jinsiy tarkibi alohida ahamiyatga ega. Chunki aholi, asosan, mana shu yoshlarda nikohga kirib, oila quradi.

Ma`lumotlarning ko`rsatishicha, dunyodagi juda ko`p davlatlarda 1530 yoshlardagi ayollarga nisbatan erkaklarning soni biroz yuqoriligi kuzatila di. Biroq Yevropa, Avstraliya, Amerika ning ba`zi davlatla rida esa 59 yoshli guruhlardan boshlab erkaklar salmog`i kamayib ketgan. Buning sababi, bu davlatlar da o`g`il bolalar o`limining yuqoriligi dir. O`zbekistonda asosiy nikohga kirish yoshlarida erkaklar va ayollar nisbati deyarli tengdir. Bu tenglik ayollarning tug`ish yoshidagi guruhlarida ham davom etadi.

O'zbekistonda aholining yosh tarkibi uning demografik xususiyatlariga va turmush darajasiga bog'liq. O'zbekiston dunyoda tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan davlatlardan. Biroq o'lkadagi tug'ilishning yuqori darajasi hammavaqt ham aholining muntazam ko'payib borishini ta'minlay olmagan. 20-asrning 1-yarmida O'zbekistonda bolalar o'limi yuqori bo'lgan va tug'ilgan bolalarning 5060 % bolalik va o'smirlik davridayoq nobud bo'lishgan. Bu hol aholining yosh tarkibida ham ifodalana di. Mas., 1926 va 1939 yillarda o'tkazil gan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining umumiy sonida 09 yoshdagi bolalar salmog'i 2324 %ni, 1959-89 yillardagi aholi ro'yxati ma'lumotlarida bu ko'rsatkich 2832 %ni tashkil etgan.

Aholi tarkibida bolalar salmog'i ning oshib borishi 1-navbatda bolalar o'limining keskin kamayishi b-n bog'liq. Bolalar salmog'ining oshib borishiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan yana biri O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalar sonining ko'payib borishidir. Tug'ilish sur'ati 20-asrning 2-yarmida juda yuqori bo'lgan. Agar O'zbekistonda 1950 yil tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 30,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1960 yilda 39,8 %ga teng bo'lgan. Bu davrda tug'ilgan bolalar 1975-80 yillarda kamolot yoshiga yetganlar va natijada aholi tarkibida 15-19, 20-24 yoshli guruhlarining salmog'i ko'tarilgan. Bu hol esa, o'z navbatida, O'zbekistonda yangi oilalar tarkib topishiga va oilalar miqdorining ko'payishiga olib kelgan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston aholisining yosh tarkibi dunyo aholisi yosh tarkibiga taqqoslansa, bolalar salmog'ining ancha yuqoriligi kuzatiladi.

O'zbekiston qarish shkalasi bo'yicha jahondagi aholisi «yosh» davlatlar qatoriga kiradi.

O'zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-59 yosh, ayollar uchun 16-54 yosh qilib belgilangan. Mehnat yoshidan yuqori, ya'ni 55 va undan katta ayollar, 60 va undan katta erkaklar soni 1991-2004 yillarda 18,7 % ga oshdi.

O'zbekistonda bugungi demografik vaziyat, ayniqsa, tug'ilish jarayonining kamayib borishi (1991 yilda tug'ilish ning umumiy koeffitsiyenti 34,50/00 ni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 20,50/00ga teng bo'ldi yoki 140/00 ga kamaydi) yaqin kelajakda jami aholi salmog'ida qariyalar ulushining ortib borishidan dalolat beradi. Bu hol esa, O'zbekistonda qariyalarning ijtimoiy-demografik guruh sifatida gi mavqei oshib borishini ko'rsatadi.

Mehnat resurslari va aholi bandligi

Mehnat resurslarining sifat taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy-iqti sodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning aholi bandligi bo'yicha olib borayotgan siyosatiga bog'liq. O'zbekiston da 16 54 yoshdagi ayollar va 16 59 yoshdagi erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Mehnat yoshidagi aholi mehnat resurslari nuqtai nazaridan o'rganilgan da 2 guruhga ajratiladi:

40 yoshgacha bo'lgan;

40 yoshdan keyingi mehnat yoshi.

O'zbekistonda mehnat yoshidagi aholi salmog'i katta hamda mehnat resurslari tez ko'payib bormoqda.

Respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega: mehnat zaxiralari jami aholining 55,4 %ni (14427,6 ming kishi) mehnat resurslari tashkil etadi va har yili 300350 ming kishiga ko`paymoqda.

Iqtisodiy faol aholi soni 10,2 mln. kishi (82 %)ga teng.

O`zbekiston mustaqillikka erishgun ga qadar reja, moliya, mehnat, ish haqi boshqarmalari va bo`limlarining boshliqlari o`rtasida o`zbeklarning ulushi 29,8 %ga teng bo`lgan.

1992 yildan boshlab narxlar va tashqi savdo liberallashtirildi, q.x va maishiy xizmat korxonalarining ma`lum qismi xususiylashtirildi.

Moliya va byujet sohalarida islohotlar o`tkazildi. Xususiylar mulk va xorijiy investitsiyalar bo`yicha qonunlar qabul qilindi. Aholining tez sur`atlar b-n ko`payishi va uning tarkibi bandlikni barqaror ravishda o`shishini ta`minlashni taqozo etadi.

Qishloq joylarda aholining zich joylashganligi, q.x.da ortiqcha ishchi kuchi mavjudligi hamda haydaladigan yerga to`g`ri keluvchilar sonining kattaligini hisobga olganda O`zbekistonda mehnat resurslariga muhtojlik bo`lishi kutilmaydi. Ba`zi iqtisodiy, demografik va geografik xususiyatlarni e`tiborga olgan holda aholi bandligi tizimini o`zgartirish lozim bo`ladi. Shu maqsadda 1992 yil yanv.da qabul qilingan O`zRning «Aholini ish b-n ta`minlash to`g`risida»gi qonuni asosida aholini ish b-n ta`minlash davlat xizmati tashkil etilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda samarali faoliyat ko`rsatuvchi mehnat bozorlari mehnat birjalari muhim o`rin egallaydi. O`zbekistonda mehnat birjalari ishsizlarni ro`yxatga oladi, ularni kasbga yo`llaydi, ishsizlik bo`yicha nafaqalar to`laydi. har yili o`rtacha 300 mingga yaqin aholi mehnat birjalari orqali ishga joylashtiriladi.

Sanoatni, ayniqsa, uning mehnatni ko`p talab qilib, xom ashyo, suv va elektr energiyani kam iste`mol qiluvchi «eksportbop» mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarini, maishiy xizmat sohalarini qishloq joylarda keng ko`lamda va tez fursatlar ichida rivojlantirish hamda shunga o`xshash boshqa tadbirlarning amalga oshirilishi respublikada aholi bandligiga xos muammolarni tez vaqt ichida ijobiy hal etishga imkon beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ubaydullayeva R., Ata-Mirzayev O., Umarova N., O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi, T., 2006.
2. Soliyev A., Bo'riyeva M. va b., Qishloq joylar demografiyasi, T., 2005.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti 2006-yil
4. WWW.ZiyoNET.uz